

A.Odilov, TMI magistranti

HUDUDLAR EKSPORT SALOHIYATINI VA TASHQI SAVDO AYLANMASINI OSHIRISHNING USTUVORLILIGI

Maqolada hududlar eksport salohiyatini va tashqi savdo aylanmasini oshirishning ustuvor yoʻnalishlarini nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan boʻlib, eksport salohiyatini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar shakllantirilga.

Калит сўзлар: *tashqi savdoni erkinlashtirish, iqtisodiy ochiqlik darajasi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish samaradorligi, raqobatbardoshlik, valyuta kursi.*

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы экспортного потенциала регионов и приоритеты увеличения внешнеторгового оборота, а также предлагаются предложения и рекомендации по улучшению экспортного потенциала.

Ключевые слова: *либерализация внешней торговли, экономическая либерализация, экспортный потенциал, эффективность производства, конкурентоспособность, обменный курс.*

The article examines the theoretical-methodological foundations of the export potential of the regions and the priorities of increasing the foreign trade turnover and proposes proposals and recommendations for the improvement of export potential.

Key words: *liberalization of foreign trade, economic liberalization, export potential, production efficiency, competitiveness, exchange rate.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq tashqi aloqalarni kengaytirish mamlakat eksport imkoniyatlarini ragʻbatlantirish maqsadida muhim meyoriy hujjatlar qabul qilinganligi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish yoʻlida qoʻyilgan muhim qadam boʻldi. Shunga koʻra tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va ragʻbatlantirish maqsadida iqtisodiy munosabatlarda koʻmak-lashuvchi muassasalarning tashkil etilishi, xorijdagi yuridik shaxslar, vatandoshlar va respublikamiz hududidagi xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarning belgilanishi hamkorlikga keng yoʻl ochmoqda.

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiy ochiqlik darajasining oʻsishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarin kengaytirishga yordam beradi.

Investitsiya dasturlarini va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda mahalliy korxonalar asosiy oʻrin tutadi. Ayniqsa, mahalliy hom-ashyo asosida eksportbop mahsulotlar ishlab

chiqaarishga ixtisoslashgan xususiy, kichik biznes korxonalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qoʻshma korxonlar tashkil qilishda esa asosiy eʼtibor koʻproq import ishlab chiqarishga qaratilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda yangi turdagi mahsulotlarning paydo boʻlishi mahalliy aholining hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan birga qoʻshni davlatlar ichki bozorlariga raqobatbardosh, isteʼmolchilar talablarini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Shu oʻrinda Oʻzbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining negizida qudratli va zamonaviy ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlashda jahon andozasi talablariga javob beradigan texnologiyalarni jalb qilishga va xalq xoʻjaligining boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga keng yoʻl ochib berilmoqda.

Respublikamizda tasis etilgan “Harakatalar strategiyasi” 2017-2021 yillarga moʻljallangan dasturi doirasida amalga oshirilayotgan III yoʻnalish – Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish mamlakatimizdagi butun iqtisodiy tizimni tubdan isloh qilishni koʻzda tutgan[1]. Bu bilan mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash boʻyicha qabul qilingan amaliy choralar muhim ahamiyatga ega boʻlayotgani quvonarlidir.

Hududlarda eksport qiluvchi korxonalar tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va ragʻbatlantirish maqsadida iqtisodiy munosabatlarda koʻmaklashuvchi muassasalarning tashkil etilishi, xorijdagi yuridik shaxslar, vatandoshlar va respublikamiz hududidagi xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarning belgilanishi hamkorlikga keng yoʻl ochib bermoqda. Oʻzbekistonda xorijiy investorlar faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslari shakllanishi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyati uchun maʼqul shart-sharoitlar yaratish boʻyicha aniq tizim qabul qilinishi sohada bir muncha oʻzgarishlarga sabab boʻldi[2].

Tashqi bozorda milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini va eksport samaradorligini oshirishda eksportchilar uchun xizmat qiladigan bozor infratuzilmalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Hududlar kichik korxonalarida mahsulot tayyorlash va uni eksport qilish, ayniqsa, qishloq xoʻjalik mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash sohasida katta salohiyatga ega. Biroq, ushbu mahsulotlarni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotishning ayniqsa, eksport qilishning samarali tizimi mavjud boʻlmaganligi tufayli ishlab chiqaruvchilar hosilning yalpi yetilish davrida koʻpincha ishlab chiqarish va tashish xarajatlarini qoplash ikoniyatiga ham ega emaslar.

Jahon tajribasi shuni koʻrsatmoqdaqi, mahsulotni ishlab chiqarish bilan bir subyekt shugʻullansa, uni sotish va eksport qilish bilan boshqasi mashgʻul boʻladi. Bu mehnat taqsimoti afzalliklaridan maksimal maksimal foydalanish imkonini beradi.

Eksportga ixtisoslashgan vositachi firmalar bu muammolarni ancha professional va samarali xal etishadi. Ishlab chiqaruvchilardan, ayniqsa, kichiki korxonalardan mahsulotni sotib olish va eksport qilish bilan shugʻullanadigan tayyorlov korxonalari va vositachi firmalar uchun qulay sharoit yaratish zaruriyati ana shundan kelib chiqadi. Bunday tashkilot va korxonalarga ham ishlab chiqaruvchi-eksportchilar uchun berilgan imtiyozli sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Soʻngi yillarda mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish ustida jiddiy qadamlarni tashladi. Taxmin qilinishicha, 2030 yilga borib Oʻzbekiston tashkilotning toʻlaqonli aʼzosi boʻlishi kutulmoqda. Tashkilotga aʼzo boʻlish respublikaning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvini tom manoda taʼminlab beradi. Bu esa, oʻz navbatida mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, eksportchilar uchun yangi bozorlarni kashf qilish imkoniyatini beradi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston bevosita ochiq ummonga chiqish imoniyatiga ega emas. Tashqi savdoni rivojlantirishdagi toʻsiqlardan biri, bu logistika bilan bogʻliq jarayon ekanligi maʼlum. Shu nuqtai nazardan temir yoʻl va avtomobil yoʻllari imkoniyatini yaxshilash zarur. Bugungi kunda Oʻzbekiston 10 transport koridori orqali jahon bozoriga oʻz mahsulotlari bilan chiqmoqda. Jumladan, Boltiq dengizi portlari : Ventspils, Klaypeda, Tallin, Riga, Liepaya ; Eronning Bandar-Abbas porti orqali ham dengizga chiqish oraqali ochiq ummon orqali xalqaro mahsulot tashuv jarayonlarini amalga oshirib kelmoqda. Biroq, bu koʻp vaqt va sarf xarajatni olishini inobatga olib aytsek, bizga yangi, vaqt tomonidan ham, mablagʻ tomonidan ham maqbul boshqa variant zarur boʻlmoqda. Ayni shu holatda, temir yoʻl orqali bu masalaga ijobiy yondashish mumkin. Hozirgi kunda Oʻzbekiston-Afgʻoniston-Pokiston temir yoʻl sohasida hamkorlik natijasida uch mamlakatni birlashtiruvchi temir yoʻl proektlari ustida ishlayotgani ham mavjud logistik muammolarga barham berishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan.

Transport tarmogʻining xilma-xilligi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlardagi yangi xaridorlarga katta imkon tugʻdiradi. Respublika transport kommunikatsiya tizimini takomillashtirish va xalqaro dasturlar doirasida ularni rivojlantirish, Osiyo-Tinch okeani xavzasi hududidagi mamlakatlar, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlari oʻrtasidagi transkontinental transport imkoniyatlarini oshiradi. Andijon-Oʻsh-Qashgʻar transkontinental transport yoʻllarining ishga tushurilishi mamlakat eksport kengaytirgani bor haqiqat.

Hududiy integratsiyaning rivojlanishi bir qator qulayliklarga ega boʻlib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat :

- Yangi sohalarni rivojlanishi uchun umumiy va undan kelib chiqqan holda nisbatan ulkan resurslar va bozorlardan foydalanish imkoniyati, masshtab samarasini

beruvchi yirik masshtabli ishlab chiqarishni rivojlantirishda hamkorlik va hudud ichkarisidagi ixtisoslashuv qulayliklaridan foydalanish ;

- Iste’molchilar uchun yanada kengroq bozor va mahsulotlar assortimentiga kirish huquqi;
- Hududlararo raqobatning rivojlanishi va global bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish ;
- Yanada yirikroq ilmiy-texnikaviy almashinuv imkoniyatlarining kengayishi hamda fan va texnologiyalarni rivojlantirishga doir harakatlarni jamlash ;
- Yanada balanslashgan infratuzilmalarni tashkil etish, masalan, transport, bank-moliya kommunikatsion va boshqalar ;

Valyuta kursi siyosatini tartibga solish eksport va mamlakat eksport salohiyatini rag’batlantirishning muhim omili bo’lishi mumkin. Import siyosati proteksionizmning yuqori darajasi bilan xarakterlanadigan bir paytda mavjud vaziyat uchun milliy valyutaning shakillangan almashinuv kursi muvozanat vazifasini o’taydi. Biroq, importni erkinlashtirish va hududiy integratsiyaning rivojlanishi importga bo’lgan talabning sezilarli darajada o’sishiga, ichki bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasayishiga va to’lov balansining defitsitiga olib kelishi mumkin. Shu paytgacha respublikamiz iqtisodiyoti kuchli darajada dollarlashgan edi. Ko‘plab tovarlar rasman dollarda sotilardi. Mobil aloqa operatorlari va internet-provayderlar tariflari unga bog‘lab belgilanardi. Erkin konvertatsiya ana shunday ko‘plab holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi[3]. Lekin hammasini ham emas. Valyutaning erkin konvertatsiya bo‘lishi, avvalo, banklarning istalgan miqdordagi chet el valyutasini konvertatsiya qilib berishini talab etadi. Hozirgi kunda yirik nominaldagi kupyura (50 ming so‘mlik) muomalaga chiqarilishi bu bozordagi narx-navo hamda kichik nominaldagi kupyuralarga nisbatan xarajatni qisqartirish uchun qilingan tabiiy choradir. Iqtisodchilarning fikricha, eng kam oylik ish haqining yarmigacha bo‘lgan miqdordagi nominal kupyuralarning muomalada bo‘lishi, bu — normal holat.

Xulosa o‘rnida aytganda, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, qolaversa, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini yanada kuchaytirish zarurati mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, institutsional va tarkibiy yangilanishlarni davom ettirishni taqozo qilmoqda. Shu ma’noda, Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi bu borada muhim qadam bo‘ldi, desak, ayni haqiqat.

Mamlakatning keyingi besh yillik istiqboli aks etgan mazkur strategiyada belgilangan vazifalar bugun amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Ayniqsa, uning Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo‘nalishida ko‘rsatilgan choratadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta hamda narxlarning barqarorligini

taʼminlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy qilish kabi ustuvor vazifalarga eʼtibor qaratilgan.

Milliy valyutaning past darajadagi almashinuv kursini ushlab turish nafaqat importning qimmatlashinuvi natijasida ichki bozorimizda milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi balki, eksport rivojini ham ragʻbatlantiradi. Bu yoki milliy valyuta haqiqiy almashinuv kursining kamayishiga proporsional tarzda eksportchilar foydasining oshishi natijasida, yoki xorijliklar tomonidan – ular uchun arzon olish hisobiga – milliy mahsulotlarimizga nisbatan talabning koʻpayishi hisobiga sodir boʻlishi mumkin.

Aniq raqamlarga tayanilsa, 2019-yil yanvar oyida eksport hajmi 1 675 729,9 ming. \$ga (oʻsish surʼati 16,6%) teng boʻldi. Eksport tarkibida tovarlar 88,0% ulushga ega boʻlib, bular asosan energiya manbalari va neft mahsulotlari (14,8%), oziq-ovqat mahsulotlari (3,6%), shuningdek, qora va rangli metallar (5,3%) guruhlarini hissasiga togʻri kelmoqda. Oltin hajmini hisobga olmagan holda, jami tovar va xizmatlar eksporti 863,6 mln. \$ ni tashkil etib, 46,1% ga oʻsdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 29,2% ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 115,3% tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar oyida 67,9% ni tashkil qilgan boʻlsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 70,8% ga yetdi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,9% ga oʻsdi.

Eksport qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 228,9 mln. \$ ga koʻp eksport qilindi va 1474,4 mln. \$ ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 201,3 mln. \$ ga yetgan.

Eksportchilarning axborot taʼminotlarini yaxshilash maqsadida elektron texnologiyalar asosida manfaatdor oʻzbek tashkilotlariga xorijda oʻtkazilayotgan tender va konkurs savdolari haqida bevosita chet el tashkilotlarining oʻzidan turib axborot bilan taʼminlashni amalga oshiradigan maxsus axborot-maʼlumot tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, tovar ishlab chiqaruvchilar va ularning mahsulotlari hamda xizmatlari, xorijiy bozorlarning konyukturasi va ularda savdo almashishning shartlarini oʻzida aks ettirgan tekin axborot veb-saytini tuzish maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Maʼlumki, dunyoning turli mamlakatlarida eksport salohiyatini oshirishni ragʻbatlantirish siyosati ulardagi rivojlanishning turli bosqichlarida oʻtkazilgan.

Bu esa oʻz navbatida ragʻbatlantirish vositalari va yondashuvni juda kuchli oʻzgarishi va kengayishiga olib keldi. Eksportni ragʻbatlantirishni barcha davlatlar misolida bir xilda muvaffaqiyatli kechgan misoli mavjud emas. Har bir mamlakat oʻz iqtisodiy sharoiti, taraqqiyot bosqichi, shuningdek, jahondagi iqtisodiy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 8 fevral 2017 yil.
2. A.O‘lmasov, A.Vaxobov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. 317-bet.
3. T.I.Bobokulov. O‘zbekiston Respublikasi milliy valyuta kursining barqarorligini ta‘minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. I.f.d ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008, - 136